

DOI: 10.5281/zenodo.15718113

Link: <https://zenodo.org/records/15718113>

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY O'SISHDA SANOAT TARMOG'INING TUTGAN O'RNI VA ROLINING JAHON TAJRIBASI

Kudaybergenov Azamat Shamuratovich

Qoraqalpog' davlat universiteti

Annotatsiya. *Ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni va alohida – alohida ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli o'zgartirish g'oyasi hozir juda mashhur. Ammo har safar ma'lum bir raqamli yechimni ko'rib chiqayotganda, korxonalaridagi tegishli sohalar direktorlari va menejerlari faqat ma'lum bir texnologik mahsulotning keng tarqalishiga tayanolmaydilar. Maqolada raqamli mahsulotlar turlari va ularni amalga oshirishdan asosiy foyda manbalari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar. *Raqamli iqtisodiyot, sement mahsuloti, investitsiya, iqtisodiy tahlil, global iqtisodiyot.*

I. KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekiston tub islohotlar va ularni chuqurlashtirish davrini boshdan kechirmoqda, ya'ni sifatli va mazmunli yangilanish jarayonlari davom etmoqda. Islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni libe-rallashtirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash evaziga uzluk-siz iqtisodiy o'sishga erishishning dolzarb vazifasi hisoblanmoqda.

Bu, o'z navbatida, raqamli iqtisodiyotda shakllanayotgan barcha iqtisodiy toifalar va tayanchlarning iqtisodiy mazmuniga muvofiq har davlatning milliy mustaqilligi g'oyasi va iqtisodiy rivojlanish yo'liga moslashishni taqozo etadi. Har bir davlatning milliy iqtisodiyotining tarkibiy tuzil-masini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish sharoitida muhim tarkibiy o'zgarish-larni amalga oshirish eng dolzarb masalalardan biridir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar, moder-nizatsiya va yangilanish dasturi amalga oshirilishining dastlabki kunlari-danoq asosiy e'tibor iqtisodiyotni takomillashtirish, uning bir tomonla-ma xom-ashyo bazasi sifatida yo'naltirilishidan voz kechish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga qaratildi va bugungi kunda bu jarayonlarni davom ettirish eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

II. ADABIYOTLAR TAHLILI

Sanoatni rivojlantirishning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o'rningi nihoyat darajada kengligi bilan doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Xususan, mavzu yuzasidan xorijlik olimlardan Yu.Rodionov, R.S.Porter, D. Deveryuks, B.Roberts, R.N. Nureevlar ilmiy yangiliklar yaratgan bo'lsalar, mahalliy olimlardan Yo.A.Abdullayev, A.Abdusamadov, U.Muxitdinov, A.A.Ortykov, E.X.Maxmudov, M.Isoqov, B. Qalmuratov, A. Bekbosynov, J. Yusupovalar[6,7,8] bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borishga muvaffaq bo'lishgan. Xususan, B. Qalmuratov "Rivojlanish tendentsiyalari va sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo'nalishlari birinchi navbatda byudjet, soliq, pul kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish"ga, bog'liqliklariga alohida to'xtalib o'tishgan[6].

III. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

IV. TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Jahon iqtisodiyotining tuzilishi va uni rivojlantirish mexanizm-lari tubdan o'zgarib borayotgan davrlarda voqealar dinamikasi, odatda, ular-ni tushunishga bag'ishlangan statistik ko'rsatkichlar dinamikasidan ancha ol-dinda turadi. Natijada, yaqindagina ishonarli bo'lib tuyulgan tushunchalar avvalgi mashhurlikni qayta tiklash uchun hech qanday imkoniyatsiz arxivga yuboriladi, voqelikdagi murakkab hodisalarning murakkab tushuntirish-lari esa shunchaki haqiqatning o'zi o'zgarganligi sababli unutiladi.

Jahon iqtisodiyoti uchun xavf-xatarlarni kamaytirish va barqaror va barqaror iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratish uchun kechiktirib bo'lmaydigan va aniq siyosiy chora-tadbirlar zarur. Jahon iqtisodiyotining dinamizmi va inklyuzivligi 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida kun tartibiga qo'yilgan keng ko'lamli vazifalarni hal etishda muhim o'rin tutadi. Qat'iy siyosiy harakatlar iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, barqaror moliyalashtirish, barqaror ishlab chiqarish va iste'mol va tengsizlikni bartaraf etish kabi muhim sohalarda ko'p tomonlama hamkorlikka asoslangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan global siyosatga yondashuvga asoslanadi. Buning uchun yanada inklyuziv, moslashuvchan va harakat qilishga qodir ko'p tomonlama tizim sari oldinga siljish zarur[4].

Jahon iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlari ortida iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkazishi va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari sezi-larli darajada yomonlashtirishi mumkin bo'lgan bir qator qisqa muddatli tavakkalchiliklarning bosqichma-bosqich oshib borishi yashiringan. Bu 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibiga qo'-yilgan ko'plab vazifalarni hal etishni ancha murakkablashtirgan bo'lar edi. Yirik makroiqtisodiy nomutanositliklar va tashqi qarzdorlikning yuqori darajasi kabi jiddiy qiyinchiliklarga duch kelayotgan mamlakatlar bunday xavf-xatarlar oldida alohida himoyasiz bo'lib qolmoqda. Dunyo bo'ylab turli harakatlar uchun imkoniyatlar sezilarli darajada kamayganligi sababli, har qanday tashqi zarba global iqtisodiy o'sish va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat uchun jiddiy va uzoq muddatli oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Olib borgan tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, butun dunyoda sement mahsuloti eng ommaviy va keng tarqalgan qurilish materiallaridan hisob-lanib, u yoki bu davlatda ushbu bozorning rivojlanish omillaridan bo'lib, undagi iqtisodiy va ijtimoiy omillarga bog'liqdir, ya'ni aholi sonining ortib borishi, aholining bandligi va daromadlari, mamlakat iqtisodiyoti-ning o'sishi, urbanizatsiyalashtirish sur'atlari, investitsiyalar hajmi va aholi uchun kreditlarni olish imkoniyatlarining yaratilganligi va boshqalar bilan izohlanadi[3].

Tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, dunyoda sement bozorining hola-tiga quyidagi omillar jiddiy ta'sir ko'rsatadi (1-jadval). Ushbu jadval-dan ko'rinib turibdiki, sement bozorining rivojlanishiga jiddiy ta'sir qiluvchi drayverlar bilan bir qatorda uni rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar ham mavjuddir.

1-jadval.

Dunyoda sement bozorining rivojlanib borishiga ta'sir qiluvchi omillar


Bozor drayverlari	Bozor cheklovlari
Urbanizatsiyalash va infratuzilmaning rivojlanishi: rivojlanayotgan davlatlarda shaharlarning tezkorlik bilan o'sishi uy-joylar, tijorat va jamoat qurilishlarida sementga bo'lgan talabni rag'batlantiradi. Hindiston, XXR va Yaqin Sharq davlatlaridagi davlat infratuzilma dasturlari ushbu bozorni o'sishiga olib keladi.	Rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o'sishning sekinlashishi: HVJning ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o'sish faqat 1,4 % ni tashkil qiladi. Bunday holat qurilish sohasiga investitsiyalarni kiritishni sekinlashtiradi.
Aholi sonining o'sishi va shaharlarning kengayishi: 2035-yilga kelib planetamizdagi aholi soni 8,89 mlrd kishiga o'sishi kutilmoqda (2025-yilda 8,01 mlrd bo'ladi). Bu esa o'z o'rnida uy-joyga va shahar infratuzilmasiga bo'lgan talabni oshiradi, hammadan ham Afrika va Osiyo davlatlarida yuqori bo'ladi.	Daromadi yuqori bo'lgan davlatlar aholisining qarib borishi: Yaponiya va Yevropaning ayrim davlatlari mehnatga layoqatli bo'lganlar sonining qisqarib borishiga duch kelib, bu esa o'z o'rnida uy-joyga bo'lgan talabni pasaytiradi, infratuzilmalarni rivojlantirishni sekinlashtiradi va natijada ushbu hududlarda sementni sarf qilishni cheklay boshlaydi.
Rivojlanayotgan davlatlarda qurilish sektorining rivojlanishi: Iqtisodiyoti yiliga o'rtacha 3,7 % ga o'sib kelayotgan rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti shahar infratuzilmasi, yotoqxona biznesi va ko'chmas mulkka faol investitsiyalarni kiritadi.	Energoresurslar narxiga bog'liqlik: Sement sanoati ko'mir, gaz va ohaktoshlarning narxiga bog'lanib qolgan bo'lib, ular o'z o'rnida turli geosiyosiy krizislar, sanksiyalar va logistik uzulishlar bosimi ostida qolib ketmoqda. Masalan, 2022-2024-yillarda energoresurslar narxining ortishi natijasida sementning tannarxini 15-20 % ga ortishiga olib keldi.

Sement bozoridagi dinamika bir nechta bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan omillarning ta'siri ostida shakllanib boradi. Bir tomondan rivojlanib borayotgan davlatlardagi faol urbanizatsiyalashtirish, aholi sonining ortib borishi va masshtabli infratuzilmaviy loyihalar sementga bo'lgan talabni mo'tadil qilib turadi. Bunday holatlar hammadan ham Hindiston va XXRlarida ko'zga tashlanib, ularda shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda bu yaqqol ko'rinib qolmoqda. Boshqa tomondan olib qaralganda, sement bozori muhim chegaralinishlarga duch kelmoqda, ya'ni iqtisodiy o'sishning susayishi, Yaponiya va Yevropa davlatlarida aholining qarib borishi va energoresurslar narxining ortib borishi sement tannarxiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, Osiyo davlatlarida qurilish ishlarining o'sib borishi sementning dunyo bozoridagi asosiy drayveri bo'lib qoladi. Hindiston, Indoneziya, Malayziya va Vyetnam davlatlarida urbani-zatsiyalashtirish jarayonlarining tezlashib ketishi ham qurilish ishlarini rivojlanayotgan mamlakatlarda yanada faollashishiga olib keladi.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, 2024-yilda dunyo bo'yicha sementni sarf qilish hajmi 1,6 % ga kamayib, 3985 mln. tonnani tashkil qilib, oxir-gi uch yildagi

kamayish tendensiyasini saqlab qolmoqda (1-rasm). Shunga qaramasdan ushbu davrda sementni sarf qilish hajmi barqaror darajada qo-lib, 3,8-4,3 mlrd tonnani tashkil qilmoqda.




1-rasm. Sement mahsulotlari bozorining hajmi, natural holatda (mln tonnada, % oldingi yilga nisbatan).⁹⁵

Iqtisodiy integratsiyani kengaytirish asosida sementdan olinadigan foyda mamlakatlar o'rtasida va ular ichida adolatli asosda taqsimlanmas-ligini tushunish tobora ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda sement savdosini liberallashtirish va moliyaviy liberallashtirishdan olinadigan foyda mamlakatlar ichida daromad va boylik tengsizligining kuchayishi, turli harakatlar uchun imkoniyatlarning kamayishi, ayrim hollarda esa milliy suverenitetga putur yetkazish sabablari sifatida tobora ko'proq ko'rib chiqilmoqda[5].

Qiymat ko'rinishidagi holatiga qarasak, sementning jahondagi bozori 300 mlrd doll. gacha kamaydi (2023-yilga nisbatan -7,1 %) (2-rasm). Ushbu summa o'zida ishlab chiqaruvchilar va importerlarning umumiy daromadini ifoda etib, unda logistikaga qilingan harajatlar, bilvosita soliqlar va savdo ustamalarini hisobga olmaydi. Ushbu bozorning maksimal hajmi 2022-yilga to'g'ri kelib (357 mlrd doll), keyinchalik ikki yillik pasayish kuza-tildi.⁹⁶

⁹⁵ Manba: o'sha joydan.

⁹⁶ Manba: Mirovoy ryinok sementa. Marketingovoye issledovaniye: trendy, analiz i prognoz. Redaksiya 2025. Otchet kompanii INDEXBOX. Moskva. 2025 g., 76 s.



2-rasm. Dunyoda sement bozorining hajmi, qiymat ko‘rinishida (mlrd dollarda, % da oldingi yilga nisbatan).

Shuni ta’kidlash joizki, 2012-2024-yillar orasida o‘rtacha yillik sof o‘sish sur’ati qiymat ko‘rinishida XXRda 1,3 % ni tashkil qilgan. Qolgan yetakchi davlatlardan hisoblanmish Hindistonda +3,3 % ni, AQSHda esa +4,0 % ni tashkil qilgan.

Bugungi chuqur integratsiyalashgan jahon iqtisodiyotida xalqaro dara-jada kelishilgan qoidalar va institutlar bozorlarning aniq ishlashini ta’minlash, kelishmovchiliklarni hal etish va barqarorlik kafolatlarini taqdim etishda hayotiy ahamiyatga egadir. Shu bois ham ko‘p tomonlama tizim-ni mustahkamlash butun dunyoda barqaror rivojlanishga erishishda muhim ahamiyatga ega. Global isishni to‘xtatish uchun ko‘plab rivojlanayotgan mamla-katlarda, eng avvalo, past rivojlangan mamlakatlarda barqaror ishlab chiqa-rishga o‘tishga ko‘maklashish maqsadida “yashil” texnologiyalar sohasida xal-qaro hamkorlikni faollashtirish, shu jumladan texnologiyalarni maqbul narxlarda uzatish zarur bo‘ladi.

Xomashyo taraqqiyoti va industrial davlatlarga qaramlik davrini bosh-dan kechirgan rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasiga murojaat qilish ularning rivojlanish yo‘llarini tahlil qilish hamda o‘z mamlakatlari taj-ribasi va voqeliklariga yanada moslashish uchun eng oqilona usullarni tan-lashga yordam beradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarni sanoat jihatidan mo-dernizatsiya qilish strategiyasini 2-jadvalda qisqacha keltirilgan bir necha bosqichga bo‘lish mumkin. Qat’iy sanoat siyosatining birinchi bosqichida davlat tanlangan sanoat tarmoqlari uchun arzon mehnat resurslaridan foy-dalanishda standart mahsulotlar ishlab chiqarish uchun imtiyozli shart-sha-roitlar yaratadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarni sanoat jihatidan modernizatsiya qilish strategiyalari mazmuni

Bosqichlar	Bosqichning moddiy bazasi	Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash
Import o'rnini bosish - ko'p mehnat talab qiladigan tovarlar ish-lab chiqarish; - yarim tayyor mahsulotlar va standart sa-noat mahsulotlari ishlab chiqarish; - arzon ishchi kuchi.	Arzon ish kuchi	Qattiq proteksionizm (ichki bozorning tarif himoyasi va boshqalar)
Eksportbop o'sish - standart sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish; - yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish.	Investitsiyalar, yangi texnologiyalar	Yumshoq sanoat siyosati (yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar uchun imtiyozli shart-sharoitlarni saqlab qolgan holda)

Boshlang'ich bosqichdan so'ng yaratilgan moddiy bazada yanada murakkab kapital talab qiladigan ishlab chiqarishlar tashkil etilmoqda. Bunday ishlab chiqarishlar uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar va butlovchi qismlar ishlab chiqarishga, shu jumladan keyinchalik investisiyaviy tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Mamlakatlarda import o'rnini bosish siyosati ichki bozorning tor ko'rinishidagi to'siqlarga duch kelmoqda, bu holda eksportga yo'naltirish mavjud vaziyatdan chiqish yo'li bo'ladi.


Tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, sement mahsuloti bozorini tahlil qilishda uning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi ko'rsatkichi asosida davlatlarni holatini baholash mumkindir (3-jadval). Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki davlatlar kesimida turlicha bo'lib, yillar kesimida ham dinamika bir xil emas. 2024-yil yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga sarf qilingan sement mahsuloti XXRda 1330 kgni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich Hindistonda – 314 kg, AQSHda – 322 kg, Vyetnamda – 948 kg, Eron-da – 793 kg, Braziliyada – 312 kg, Turkiyada – 776 kg, Rossiyada – 452 kg, Indoneziyada – 225 kgni tashkil qilmoqda. Aholi jon boshiga sement mahsulotini sarf qilishning yillik o'rtacha o'sish sur'ati ham ushbu davlarda turlicha bo'lmoqda.

3-jadval.

Davlatlar kesimida aholi jon boshiga sementni sarf qilinishing holati (mln tonna, kg/yil)

Davlatning nomi	Sarf qilinishi, mln. tonn			Aholi soni, mln. kishi			Aholi jon boshiga sarf qilinishi, har bir kishiga kg.			Sarf qilishning yillik o'rtacha o'sish sur'ati, %	Aholi jon boshiga sarf qilishning yillik o'rtacha o'sish sur'ati, %
	2022	2023	2024	2022	2023	2024	2022	2023	2024	2012-2024	2012-2024
XXR	2 101	1 997	1 896	1 419	1 423	1 426	1 480	1 404	1 330	-1,2%	-1,7%
Hindiston	380	420	450	1 407	1 420	1 432	270	296	314	4,4%	3,3%
AQSH	117	114	109	335	337	339	350	339	322	2,7%	2,0%
Vyetnam	105	93,4	95,2	99,0	99,7	100	1 056	937	948	4,6%	3,7%
Eron	55,6	69,6	69,7	86,0	87,0	87,9	647	801	793	0,2%	-1,1%
Braziliya	63,7	66,9	68,1	215	217	218	296	309	312	-0,3%	-1,0%
Turkiya	58,2	64,4	67,0	85,6	86,0	86,3	680	749	776	2,1%	0,9%
Rossiya	61,0	62,9	64,9	144	144	144	424	437	452	0,0%	-0,0%
Indoneziya	62,5	65,6	63,9	279	282	284	224	233	225	1,5%	0,3%
Boshqalar	1 105	1 096	1 101	3 853	3 906	3 960	-	-	-	1,7%	n/a
Jami	4 108	4 051	3 985	7 923	8 001	8 077	518	506	493	0,4%	-0,7%

Korporativ boshqaruvning davlat funksiyalari va vazifalari taqsim-landi, davlatning nazorat funksiyasi samaradorligini oshirish, shu jumla-dan monopol tartibga solish sohasida chora-tadbirlar ko‘rildi. Iqtisodiy nazariya shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan sa-noat siyosatini amalga oshirishda davlatning o‘zi ham ustuvor yo‘nalishlarga sarflash uchun davlat byudjetida mablag‘larni jamlash orqali amalga oshi-rishda ishtirok etishi, shuningdek, texnologik jihatdan yanada rivojlangan tarmoqlarni rivojlantirish uchun tadbirkorlar uchun rag‘batlantirish va yo‘nalishlar tizimini yaratishi mumkin.



3-rasm. Dunyo sement bozorining bashorat qilinishi

Texnologik rivojlanish iqtisodiyotlarni dinamik optimallashtirish modelida asoslangan bunday yondashuv mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish va jahon yetakchilaridan ortda qolishni kamaytirish imkonini beradi. Sanoat sohasi va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni muvo-fiqlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqilib, bu sanoat siyosati doirasida sanoatni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish tizimida resurslarni samarali taqsimlashga erishish imkonini beradi, ya'ni:

1) bir bandga hisoblaganda sanoatning YAHM o'sishini va bir bandga hisoblaganda iqtisodiyotning YAIM o'sishini kelishish;

2) iqtisodiyot sifati va uning quyi tizimi - sanoat tarmog'i sifati dinamikasini kelishish;

3) iqtisodiy tizimda inqirozli vaziyat yuzaga kelganligi to'g'risida signal olishda sanoatga ham, umuman iqtisodiyotga ham ta'sir ko'rsatishning xususiyatlarini o'zgartirish hamda makro va mezo konstantalarning maqsadli qiymatlariga erishishga yo'naltirish.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, qurilish materiali sifatida sementga bo'lgan talab keyingi yillarda ham ijobiy dinamikada saqlanib qolinadi (3-rasm).

Bashorat qilinishicha, 2024-yildan 2035-yilgacha o'rtacha yillik o'sish sur'ati +0,8 % ni tashkil qilib, 2035-yilga kelib uning hajmi 4,3 mlrd tonnani tashkil qiladi.

V. XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat tarmog'i va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni muvofiqlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari sanoat va iqtisodiy rivojlanishni tartibga solish tizimida davlatning investitsiya resurslarini samarali qayta taqsimlashni ta'minlash imkonini beradi.

Tahlil ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, o'tgan davr mobaynida sanoatdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi, mahsulot ishlab chiqarish salohiyati sezilarli darajada oshdi. Lekin hali mamlakatimiz sanoati rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilayapti, deb bo'lmaydi. Bu jarayon quyidagi omillar bilan bog'liq:

- moddiy xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini past darajada ekanligi;

- sanoat majmuiga kiritilgan investitsiyalar tarmoq mahsulotlari eksporti salmog'ining oshishiga hissa qo'sha olmayotganligi, asosan ichki bozor uchun mahsulot yetkazib berish bilan cheklanishi;

- sanoat korxonalarida mavjud kapitalning moddiy va ma'naviy jihatdan eskirganligi, natijada mahsulot yaratishda tannarxning yuqori darajaga chiqib ketishi, sifat darajasi bo'yicha import mahsulotlar sifati bilan raqobatlasha olmayotganligi, elektr energiyasi va qo'l mehnatidan foydalanish qisqarmaganligi. Bu kabi muammolar sanoatda tarkibiy investitsion siyosatni yanada takomillashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab etadi.

Shu bilan birga mamlakat sanoati rivojlanishini ta'minlovchi quyidagi yo'nalishlarni taklif etamiz:

- investitsion ishlab chiqarishni rivojlantirish, keng ko‘lamli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan, ilmiy asoslangan loyihalar ishlab chiqish;
- korxonalarda innovatsion salohiyatni takomillashtirish, ilm va yuqori texnologiya talab qiladigan yangi korxonalar tashkil etish va import mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish;
- rivojlangan mamlakatlarning sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi zamonaviy texnika-texnologiyalarini import qilish siyosatini jadallashtirish; - sanoatda xususiy tarmoq va kichik tadbirkorlik ulushini oshirish; - diversifikatsion faoliyatni takomillashtirish, ichki zahira va mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanishni ta’minlash lozim bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли ишонч” рақамли иқтисодиётни ривожлантиришни қўллаб-қувватлаш жамғармасини ташкил этиш тўғрисида”ги 2018 йил 9 сентябрдаги ПҚ-3827-сонли Қарори
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли иқтисодиёт ва «Электрон ҳукумат» тизими инфратузилмаларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2019 йил 18 майдаги, ПҚ-4321-сонли Қарори
3. Ўзбекистон Республикасининг 2035 йилгача ривожланиш стратегиясининг концепцияси. <http://uzbekistan2035.uz/uz>
4. Постановлении ПРУз “Об утверждении стратегии “Цифровой Узбекистан-2030” и мерах по ее эффективной реализации”.
5. Савина Т.Н. Цифровая экономика как новая парадигма развития: вызовы, возможности и перспективы // Финансы и кредит. 2018. № 3 (771).
6. Калмуратов Б., Бекбосынов А. Механизмы образования промышленных кластеров в условиях инновационной экономики/«Инновацион иқтисодиётда кластерларни шакллантириш ва ривожлантириш» » мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари (Самарқанда 2022 йил 13-14 май) 102 -106 стр
7. Калмуратов Б. Тенденций развития и приоритетные направления по развитию промышленности// Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice <https://www.bulletennauki.com>. Т. 7. №12. 2021 <https://doi.org/10.33619/2414-2948/73>. С.215-220
8. Калмуратов Б. Юсупова Ж. К. Организационно-экономический механизм инновационного управления промышленного комплекса// Бюллетень науки и практики. 2022. Т. 8. №3. С. 317-323 <https://doi.org/10.33619/2414-2948/76/35>
9. Stat. uz Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат статистика агентлиги маълумотлари